

ISSIQXONADA POMIDOR KO'CHATLARINI YETISHTIRISH

*Alijonova Sevinch Yahyobek qizi
Namangan Davlat universiteti talabasi
studentka11012003@gmail.com*

Anotatsiya. Pomidorning ildiz tizimi nihoyatda tarmoqlangan bo'lib, tuproqning chuqur (150 santimetrgacha) qatlamlariga kirib boradi va eniga 1,5-2,5 metr diametrgacha o'sishi mumkin. Determinant pomidor navlari ochiq dalaga ekilsa, indeterminant navlar asosan issiqxonalarda yetishtiriladi. Mevalarining og'irligi 50 dan 1000 grammgacha; rangi qizil, pushti, sariq, binafsha, oq va hatto qora bo'lishi mumkin; shakli yumaloq, yumaloq-yassi, noksimon, olxo'risimon bo'lishi mumkin. Pomidorning poyasi o'tsimon, tik yoki yotib o'sadi, kuchli yoki kuchsiz shoxlanuvchan bo'lib, poya turiga qarab 30 santimetrdan 2-3 metrgacha o'sadi. Mevasi ikki, uch va ko'p kamerali, sersuv, rezavor.

Kalit so'z: . Pikrofka, rezavor, Determinant, indeterminant, yumaloq, yumaloq-yassi, noksimon, olxo'risimon.

ВЫРАЩИВАНИЕ РАССАЖИ ПОМИДОРОВ В ТЕПЛИЦЕ

*Алиджонова Севинч Яхёбек, doch.
Студент Наманганского государственного университета
studentka11012003@gmail.com*

Аннотация. Корневая система томата чрезвычайно разветвленная, проникает в глубокие (до 150 сантиметров) слои почвы и может вырастать до 1,5-2,5 метров в диаметре. Детерминантные сорта томатов выращивают в открытом грунте, а индетерминантные сорта преимущественно выращивают в теплицах. Плоды весят от 50 до 1000 грамм; цвет может быть красным, розовым, желтым, фиолетовым, белым и даже черным; форма может быть округлой, округло-плоской, грушевидной, сливовидной. Стебель томата травянистый, растет прямостоячий или лежачий, имеет сильное или слабое ветвление, вырастает от 30 сантиметров до 2-3 метров в зависимости от вида стебля. Плод двух-, трех- и многокамерный, сочный, ягодный.

Ключевое слово: . Пикрофка, ягодная, Детерминантная, индетерминантная, круглая, округло-плоская, грушевидная, сливовидная.

GROWING TOMATO SEEDLINGS IN THE GREENHOUSE

*Alijonova Sevinch Yahyobek's daughter.
Student of Namangan State University*

Annotation. The root system of a tomato is extremely branched, penetrates deep (up to 150 centimeters) layers of the soil and can grow up to 1.5-2.5 meters in diameter. Determinant varieties of tomatoes are grown in the open field, while indeterminate varieties are mainly grown in greenhouses. Fruits weigh from 50 to 1000 grams; the color can be red, pink, yellow, purple, white and even black; the shape can be round, round-flat, pear-shaped, plum-shaped. The stem of a tomato is herbaceous, grows upright or lying down, has strong or weak branching, and grows from 30 centimeters to 2-3 meters, depending on the type of stem. The fruit is two-, three-, and multi-chambered, juicy, berry.

Keyword: . Pikrofka, berry, Determinant, indeterminate, round, round-flat, pear-shaped, plum-shaped.

Kirish. Ituzumnamolar - Solanales qabilasi

Bu qabila bir-biriga juda yaqin 5 ta oilani o‘z ichiga oladi.

Ituzumdoshlari - Solanaceae oilasi

Yer yuzida oilaning 90 turkumga mansub 3000 turi bor. O‘zbekistonda 7 ta turkumga oid 25 turi o‘sadi. Oila vakillari ko‘p yillik o‘t va ayrim butalardan iborat. Barglari oddiy yoki patsimon qirqilgan, ketma-ket joylashgan. Ko‘pchilik turlarining gullari aktinomorf, ikki jinsli. Gulkosachasi, gultojbarglari va changchisi 5 tadan. Mevasi rezavor yoki ko‘sakcha. Gul formulari: * Ca(5) Co(5) A5 G2 Oila vakillari alkoloidli o‘simliklar jumlasiga kiradi. Bir qancha vakillari ovqat va sabzavot o‘simlik, ba’zilari narkotik yoki Yalpizkabilar - Labiadae sinfcha (ajdodcha)si manzarali o‘simlik sifatida ekiladi. Pomidor - Lycopersicon. Bir yillik o‘t o‘simlik bo‘lib, sabzavot o‘simlik sifatida ekiladi. Pomidoming mevasi C, B, B6, P, PP, K vitaminlar va korotinga juda boy.(1)

Adabiyotlar taxlili: Bu oilaning vakili sifatida pomidor (*Lycopersicum esculentum*) olib o‘rganiladi. Bu o‘simlikning vatani Peru hisoblanadi. Pomidor balandligi 60 sm gacha boradigan bir yillik o‘t o‘simlik, biroq vatanida ko‘p yillikdir. Poyasi shoxlangan, tik o’suvchi, meva hosil qilgandan keyin poyasi yotib o‘sadi. Poyasi yumaloq qabirg‘ali, tuklar bilan qoplangan. Barglari oddiy patsimon qirqilgan, tukli, yon bargsiz bo‘lib poyada ketma ket o‘mashadi. Guli gajak to‘pgulga birlashgan bo‘lib, har bir gajagida 3-20 guli bo‘ladi. Guli ikki jinsli, aktinomorf. Gulkosasi yashil rangda bo‘lib osti bilan birlashgan 5-10 ta gulkosa bargidan iborat. Gultoji sariq bo‘lib, u ham 5-10 ingichkaroq uchi pastga qarab egilgan gultojibarglaridan hosil bo‘ladi. Gultojibarglarining osti ham bir-biri bilan birlashgan bo‘ladi.(2) Ko‘chatlarni yetishtirishda ekishga yaroqligi yuqori sifatli bo‘lgan oldindan tekshirilgan va ekish oldidan ishlov beriigan urug’lardan foydalaniлади. Urug’ni yuqori sifatli bo‘lish i va

ular uchun qulay sharoitni yaratib berilishi sarflanadigan urug' miqdorini ma'lum darajada kamaytirishga imkoniyat beradi. 1 ga issiqxona mayydoniga ko'chat tayyorlash uchun 150-180 g pomidor urug'i yetarlidir(3)

Taxlil va natijalar: Himoyalangan yer uchun ko'chat yetishtirilayotganda karantin va profilaktika qoidalariga qat'iy amal qilinadi. Ko'chat yetishtiriladigan issiqxona va uni bo'limi fumigantlar yoki formalin bilan ishlanishi kerak. Idishlar, inventar va urug'lar dezinfeksiva qilinadi. Ko'chat yetishtirish bo'limiga sabzavot yetishtiriadigan issiqxonalar tomonidan kirish berkitilib, ko'cha tomondan vaqtinchalik o'rnatilgan eshik orqali kiriladi. Kirish eshigi oldiga oyoq kiyimlarni dezinfeksiva qilish uchun dorili idish qo'yiladi. Ishchilar maxsus oyoq kiyimi va xalat oladilar, begonalarni ko'chat bo'limiga kirishi taqiqlanadi. O'simliklarni himoya qilish xodimlari profilaktik chora tadbirlarga amal qilishni kuzatish bilan birga, tekshiruvlar va ishlov berishlarni amalgalashiradilar. Ko'chatlarni yetishtirishda ekishga yaroqligi yuqori sifatli bo'lgan oldindan tekshirilgan va ekish oldidan ishlov beriigan urug'lardan foydalaniladi. Urug'ni yuqori sifatli bo'lishi va ular uchun qulay sharoitni yaratib berilishi sarflanadigan urug' miqdorini ma'lum darajada kamaytirishga imkoniyat beradi. 1 ga issiqxona mayydoniga ko'chat tayyorlash uchun 150-180 g pomidor urug'i yetarlidir. Urug' ekish oldidan ko'zdan kechirilib, puch hamda ezilganlari qolda terib tashlanadi. Urug' yuzisidagi zamburug' sporalarini va bakteriyalarini yo'qotishda ekish oldida pestitsidlar bilan ishlov beriladi. Quruq zararsizlantiruvchi zaharlar urug'larni ekishdan 2-3 hafta oldin. Suyuq zaharlar - ekish oldidan ishlatiladi. Urug'larga ishlov berishda «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligida foydalanishga ruxsat etilgan pestitsidlar va agroximikatlar ro'yxatiga» kiritilgan zaharlar ishlatilishi kerak. Urug' aynan ekish oldidan 15-20 daqiqa davomida 0,5-1,0% kaliy permanganat eritmasi bilan ishlov beriladi, so'ng toza suvda yuviladi. Pomidor ko'chati pikirovka qilinib hamda pikirovka qilmasdan yetishtiriadi. Pikirovka qilmay o'stirilganda urug' tuvakcha yoki kubiklarga ekiladi. Pikirovka qilib yetishtirilganda urug' tuproqqa ekiladi, so'ng maysalar tuvakchalarga pikirovka qilinadi. Maysazor ko'chat tuprog'idan tayyorlangan eni 1,5 m bo'igan egatlarga joylashtiriladi. Urug' tuproq ustidagi marker izlari bo'ylab olingan egatchalarga, 1 sm chuquriikka ekiladi. 1 ga li issiqxonaga pomidor ko'chatini tayyorlash uchun 50 m² maydonli maysazor zarur. Urug' sepilgan yoki pikirovka qilingan tuvakchalar lentalarga o'rnatiladi. Ularni eni 1,4-1,6 m uzunligi 30 m gacha bo'ladi. Lentada joylashtirilgan tuvakchalar soni issiqxonani eni 6,4 m bo'lilmarda 4-5 ming dona bo'lib, bo'limning yarmidan oshmasligi lozim. Issiqxonalarda o'simlik ildiz tizimini ildiz chirish va nematoda bilan zararlanishdan saqlash uchun tuvakchalarni tuproq ustiga yozilgan yangi yupqa polietilen plyonkasi ustiga teriladi. Ekish chuqurchalari va tuvakchalarni oraliqlariga oziqali aralashma sepiladi. Lentadagi tuvakchalar ustida plyonka bilan berkitilib, maysalar hosil bo'lishi bilanoq olib qo'yiladi. Qiyg'os maysa hosil qilishi va bir tekis ko'chat yetishtirishni ta'minlash uchun

urug' unib chiqquncha haroratni bodring, qovun, tarvuz uchun - 27°S, pomidor, qalam pir, baqlajonga - 24°S, salat, karamli o'simliklar uchun esa - 20- 22°S ushlab turiladi. Himoyalangan yerlar uchun ko'chat tayyorlashda mikroiqlim me'yorlarini yetishtiriladigan ekin talabiga mosligi ko'zda tutilishi kerak. Himoyalangan yerga ko'chat tayyorlanganda uni doimiy joyiga ko'chirib ekishdan oldin chiniqtirilmaydi, chunki u bir xil sharoitda ko'chirib o'tkaziladi. Tuvakchali ko'chat yetishtirishda o'simliklar 1-2 oziqlantiriladi. Issiqxonalarda ekish uchun sog'lom, rivojlanishi bir xil bo'lgan ko'chatlar tanlab olinadi, kasallanish alomatlari bo'lgan va sifatsizlari chiqitga chiqariladi. Ko'chatlar yashiklarga 10-12 tupdan joylashtirib maxsus etajerkalarni tokchalariga qo'yib issiqxonalarga tashiladi.(3) Ko'chatlarni biz ikki hil usul bilan ekdik. Birinchisi ko'chirib otkazish yo'li bilan . Ikkinchisi tuvakchali usulda ekish. Birinchi usulimizda pomidor urug'lari yashikchalarda tayyorlangan va yetarlicha namlangan tuproqlarga urug'lar qalin holatda sepiladi. Yashiklar kattaliklari unchakatta bolmagan yashiklarga ekiladi. Misol uchun yashiklarning razmeri 50sm *30sm o'lchamda bolgani maqsadga muvofiq. Bunday yashiklarga mahsus tayyorlangan tuproqlarni solib olamiz. Bu tuproq tarkibida 30 % biogumus 70% turli hil chirindi va o'g'itlardan tashkil topgan tuproq aralashmasi solinadi. Unga qalin qilib pomidor urug'lari sepiladi va usti salafanlar bilan yopib qo'yiladi. Tayyor yashiklar yoruglik yaxshi Tushadigan va harorat yuqori joylarda saqlanadi . Bunday sharoit tabiiy bolmasa bu sharoit sun'iy holatda hosil qilinsa boladi. Sun'iy isitish gaz yoki elektr yordamida isitish mumkin. Sun'iy yorug'likni esa cho'g'lanma lampalar bilan hosil qilish mumkin. Haroratni bir hilda ushlab turish kerak hisoblanadi.Haroratni 8 - 13°S da ushlab turilganda pomidor kochatlari unib chiqmagani kuzatildi.Harorat 20- 24°S da bo'lganida. Shu haroratda pomidorlar 20-23 kunlarda unib chiqadi.Harorat 27-35°S da ushlab turilganda pomidor urug'lariga namlik yetishmasdan urug'lar kuyib unib chiqish kuzatilmadi. Unib chiqqan kochatlarni pikrovka yoli bilan paketchali tuvaklarga ko'chirib otkaziladi. Bu esa ancha mehnat talab etadi. 3 yoki 4 kun tuvakchalarda saqlanib turadi. Bu esa o'simlik ekilgandan so'ng uni qurib qolishini oldini oladi. Tuvakchali pomidorlarimiz ichidagi qurib qolgan bazi birlari olib tashlanadi.Ular 40-45 kunlik bo'lgandan so'ng ekin maydonlariga ekiladi. Ikkinci usul tuvakchalarga ekish. Bu usul samarali va kam vaqt sarf etadigan usul hisoblanadi. Bu usulda paket tuvakchalarning tag qismiga 25% biogumus 75% boshqa turpoq aralashmalaridan solinadi. Har bir tuvakchalar yetarlicha namlanib ularga pomidor urug'lari ekiladi. Haroratni 8 -13°S da ushlab turilganda pomidor kochatlari unib chiqmagani kuzatildi. Harorat 20-24°S da bo'lganida. Shu haroratda pomidorlar 20-18 kunlarda unib chiqadi. Harorat 27-35°S da ushlab turilganda pomidor urug'lariga namlik yetishmasdan urug'lar kuyib unib chiqish kuzatilmadi. Pomidor ko'chatlari biroz o'sib 40-38 kunligidan ekin maydonlariga ekila boshlanadi.

Xulosa: Pomidor o'simligining kochatlarini yetishtirishdagi usulda paket tuvakchalarining tag qismiga 25% biogumus 75% boshqa turpoq aralashmalaridan solinadi. Har bir tuvakchalar yetarlicha namlanib ularga pomidor urug'lari ekiladi. . Harorat 20-24°S da bo'lganida. Shu haroratda pomidorlar 20-18 kunlarda unib chiqadi. Vaqtdan unumli foydalanish va ortiqcha mehnatni kamaytiruvchi usul bu tuvakchalarda yetishtirish usuli. Bu malumotlar adabiyotlarda keltirilgan malumotlarga mos keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.H.Hamdamov, E.I.Hamdamova, G.A.Suvonova, M.Begmatova "BOTANIKA VA 0 'SIMLIKLAR FIZIOLOGIYASI" (BOTANIKA QISMI) fanidan laboratoriyyava amaliy mashgulotlar.
2. A.A. Matkarimova, T.X. Mahkamov, M.M. Maxmudova, X.Ya. Azizov, G.B. Vaisova"BOTANIKA".
3. S.YUNUSOV, Z.ABDIYEV "ISSIQXONALARDA SABZAVOT KO'CHATCHILIGI" Qishloq xo'jalik oliy o'quv yurti talaba vo magistrleri uchun darslik.